

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026 MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI	10
Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА	19
Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишеревич	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	28
Габбарова Ильмира Володиевна	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH	34
Amirov Shavkat Rahmatullayevich	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	41
Усманова Азиза Баходировна	
PEREGONDAGI HARAKATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQISH	46
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	55
Alimova Dilafrō'z Tohir qizii	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	61
Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR	67
Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	75
Rajapov Xayrulla Bekdurdıyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH	82
Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI	90
Muxtorova Shaxlo Farxodovna	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH	94
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY	99
Sultanova Kamila Mukhtorali kizi	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	104
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
FARG'ONA VILOYATI MAHALLALARIDA TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLARINI BAHOLASH	110
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	



MHXS STANDARTLARIGA O'TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	116
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO'P O'LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI	120
Turdikulova Moxira Maxmasharifovna	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI	125
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO'Y BERISHI MUMKIN BO'LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI	131
Dehqonov Oyatillo Mansurbek o'g'li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQRISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH...	136
Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg'ashova Madina, Jo'rayev Muhiddin	
JAHON MOLIYAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	140
Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.	
KORXONALARDA "TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH" KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	144
Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich	
HUDUDIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO'LLARI.....	149
Mamadjanova Tuyg'unoy Axmadjanovna	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO'SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH	154
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O'RNI	159
Irgashev Anvar Farxodovich	
XALQARO KOMPANIYALARDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	166
Raxmankulov Sherzod Shokirovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГРАДАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР	171
Дыскин Валерий Григорьевич, Курбанов Юнус Муртаза угли, Жубаназаров Ринат Шапагат Улы	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI	177
O'tbosarov Abrorbek Adxamjon o'g'li	
DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQRISH.....	182
Xamidova Zarifa Urol qizi	
AUDIT JARAYONIDA DALIL OLISH VA UNING MUAMMOLARI.....	189
Ro'zmetov Mansur	
O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TURIZMNI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	193
Shaydulova Marjona Alisher qizi	
KORXONALARNING MOLIYAVIY HOLATINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR VA ULARNING MOLIYAVIY TAHLILI AHAMIYATI.....	198
Rizoyev Farrux Hikmatilloevich	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDA IQTISODIY SALOHİYATNI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	203
Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG'DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	208
Komilova Nodira Abdirahmon qizi	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ	218
Юсупов Зойиржон Ровшан угли, Жумаев Улуғбек Нодирбекович ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ КОМПАНИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ	224
Тожалиев Шохрух Талип ўғли GAMES ARE A POWERFUL TOOL FOR IMPROVING LANGUAGE LEARNING	229
Kulakhmedova Gulnora Abdurahimovna O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION XIZMATLARI ORQALI KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH	234
Azlarova Aziza Axrorovna AVTOMOBIL SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINI BOSHQARISH VA RISKLARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI	241
Marufxanov Davron Hasanovich O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI IMKONIYATLARI: 2026-YIL ISLOHOTLARI VA ISTIQBOLLARI	249
Isakjanova Saboxat Muhamedovna MINTAQA IQTISODIYOTI VA SANOATNING RIVOJLANISHI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNING NAZARIY YONDASHUVLARI	256
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISHNI JORIY ETISHDA ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI	261
Anvar Deberdiyev RAQAMLI XIZMATLARNING O'ZBEKISTON TASHQI SAVDO BALANSIDAGI O'RNI	265
Latipova Shaxnoza Maxmudovna, Normurodova Zuhra Orzimurod qizi TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI	271
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna IQTISODIY TIZIMDA TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK QOBILİYATIGA YANGICHA YONDASHUV	276
Tadjiev Bexzod Umidjanovich OTMNI MOLIYAVIY TA'MINLASHNING INNOVATSION MOLIYAVIY MODELARI	283
Tuxliyev Bozor Karimovich TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIMLARNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	286
Abirova Nargizabonu TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	291
Ro'ziyeva Maftuna Yusufovna OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR DINAMIKASINING EMPIRIK TAHLILI	296
Sharipova Shahlo Istamovna METROLOGIYANING ILMIY-METODIK ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	301
Maxmudov Dostonbek Soyibjon o'g'li SANOAT KORXONALARIGA KIRITILGAN INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	305
Mirzakulova Risolat Musurmankulovna O'ZBEKISTONDA RAQAMLI DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	310
Ibragimova Saodat, Mirhamidova Dilorom, Shagaipova Gulchehra	



OLIY TA'LIM BITIRUVCHILARI SONINING JISMONIY SHAXSLAR DAROMAD SOLIG'IGA TA'SIRI VA INSON KAPITALI ORQALI IJTIMOYIY XARAJATLARNI BOSHQARISH.....	316
Primova Nigora Ikrom qizi	
GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALARNING ROLI: YANGI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHGA STRATEGIK YONDASHUVLAR	324
Raxmankulov Sherzod Shokirovich	
ELEKTRON TIJORAT BILAN SHUG'ULLANUVCHI KORXONALARDA MIJOZLAR QONIQLASH DARAJASI..	330
Aripov Ulug'bek Bahodirovich	
KICHIK BIZNESDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	334
Xakimov Akbar Anvarovich	
FOTOELEKTRIK TIZIM SAMARADORLIGIGA HARORAT, SOYALANISH VA DEGRADATSIYA OMILLARINING TA'SIRI.....	337
Majidova Maxliyo A'zam qizi	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG'DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	347
Komilova Nodira Abdirahmon qizi	
STUDY OF THE INFLUENCE OF MEMBRANE REACTOR ON METHANE CONVERSION WITH WATER VAPOR AND CARBON OXIDE (IV).....	355
Umida Shabarova, Sugdiyana Abdurasulova	
ESG MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN: EVALUATION PRACTICES, KEY DETERMINANTS, AND STRATEGIC PRIORITIES.....	360
Sanemkhan Abdullaeva	
UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI	368
Boymirzayev Doniyorbek Anvarjon o'g'li	
PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRADIGAN PLATFORMA ISHLAB CHIQLASH	372
Salomov Shokirjon, Boboyev Shavkat, Normamatov Xayriddin	
ПОВЫШЕНИЕ ОГНЕСТОЙКОСТИ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ ВТОРИЧНОГО ПОЛИЭТИЛЕНА.....	379
Назаров Феруз, Назаров Фарход, Ахмедова Фазилат, Элмуродов Элгез, Янгибоев Асадбек	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION JARAYONLARNI JADALLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	384
Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Rasulov Akmal Xurshid o'g'li	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	390
Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi	
MADANIY MEROS OBYEKTLARINING TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI STRATEGIK AHAMIYATI	396
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	400
Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi	



EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI

Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti,
“Mintaqaviy va korporativ strategiyalar” kafedrasida dotsenti,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Bazarova Sevinch Salim qizi

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti,
Mintaqaviy va korporativ strategiyalar fakulteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada eksport va import operatsiyalarining samaradorligini ta'minlashda transport logistikasining tizimli o'rni chuqur tahlil qilinadi. Logistika jarayonlarining texnik va tashkiliy jihatlari, xususan, transport marshrutlarini optimallashtirish, multimodal tashish tizimlari, bojxona integratsiyasi hamda raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, amaldagi tizimdagi asosiy muammolar aniq va izchil tarzda yoritilib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: transport logistikasi, multimodal tashish, eksport-import, ta'minot zanjiri, tranzit, bojxona integratsiyasi, raqamlashtirish.

Аннотация. В данной статье проводится углублённый анализ системной роли транспортной логистики в обеспечении эффективности экспортно-импортных операций. Рассматриваются технические и организационные аспекты логистических процессов, включая оптимизацию транспортных маршрутов, мультимодальные транспортные системы, интеграцию таможенных процедур, а также применение цифровых технологий. Кроме того, чётко и последовательно выявляются ключевые проблемы существующей системы и разрабатываются научно-практические рекомендации, направленные на их устранение.

Ключевые слова: транспортная логистика, мультимодальные перевозки, экспортно-импортные операции, цепочка поставок, транзит, таможенная интеграция, цифровизация.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the systematic role of transport logistics in ensuring the efficiency of export and import operations. The technical and organizational aspects of logistics processes are examined, including route optimization, multimodal transportation systems, customs integration, and the application of digital technologies. Furthermore, the key challenges within the current system are clearly and consistently identified, and practical scientific recommendations aimed at addressing these issues are developed.

Keywords: transport logistics, multimodal transportation, export-import operations, supply chain, transit, customs integration, digitalization.

KIRISH

Hozirgi global iqtisodiy tizimda davlatlarning raqobatbardoshligi nafaqat ishlab chiqarish hajmi yoki resurs salohiyati bilan, balki mahsulotlarni xalqaro bozorlarga tezkor va samarali yetkazib berish imkoniyati bilan ham belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, transport logistikasining rivojlanganlik darajasi eksport-import operatsiyalarining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Logistika tizimi yuk tashishni samarali tashkil etish bilan bir qatorda, ta'minot zanjirining barcha bosqichlarini — omborlash, qayta yuklash, marshrutlashtirish, bojxona rasmiylashtiruvini hamda yakuniy yetkazib berish jarayonlarini kompleks va uzviy ravishda qamrab oladi [1].

Bundan tashqari, zamonaviy logistika konsepsiyasi integratsiyalashgan yondashuvni talab etadi. Ya'ni, transport vositalari, infratuzilma, axborot tizimlari va boshqaruv mexanizmlari yagona tizim sifatida faoliyat yuritishi lozim. Ayniqsa, eksport va import operatsiyalarida vaqt omili hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, chunki har qanday kechikish mahsulot tannarxining oshishiga, shartnomaviy majburiyatlarning buzilishiga hamda natijada iqtisodiy zarar yuzaga kelishiga olib keladi. Shu sababli transport logistikasini ilmiy asosda optimallashtirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida eksport va import operatsiyalarining samaradorligi transport-logistika tizimining rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liqdir. Transport logistikasi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga o'z vaqtida, xavfsiz va minimal xarajatlar asosida yetkazib berishni tashkil etuvchi muhim iqtisodiy mexanizm hisoblanadi. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda transport logistikasining tashqi savdodagi o'rni va ahamiyati keng ko'lamda o'rganilgan [2].

Ilmiy manbalarda logistika tushunchasi moddiy oqimlarni boshqarish tizimi sifatida talqin etiladi. Christopher (2016) logistikaning asosiy vazifasi mahsulotlarni kerakli joyga, kerakli vaqtda hamda minimal xarajatlar asosida yetkazib berishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Bowersox va Closs esa logistika tizimi korxonaning raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omillardan biri ekanligini qayd etgan [3].

Tadqiqotlarda transport logistikasining samarali tashkil etilishi eksport-import operatsiyalaridagi xarajatlarni kamaytirishi, yuklarni yetkazib berish muddatini qisqartirishi hamda xalqaro bozorda raqobat ustunligini ta'minlashi ko'rsatib o'tilgan.

Eksport faoliyatida transport logistikasining ahamiyati

Ilmiy adabiyotlarda eksport salohiyatini oshirishda transport infratuzilmasining rivojlanganligi muhim omil sifatida baholanadi. Xususan, Qosimova D.S. o'z tadqiqotida O'zbekistonda transport-logistika tizimini modernizatsiya qilish eksport hajmining oshishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Muallif logistika markazlarini tashkil etish, multimodal transport tizimini rivojlantirish hamda bojxona jarayonlarini soddalashtirish eksport samaradorligini oshirishini ilmiy jihatdan asoslab bergan [4].

Narziyev U.B. tadqiqotlarida esa milliy iqtisodiyot eksport salohiyatini rivojlantirishda temiryo'l va avtomobil transportining ahamiyati yoritilgan. Unga ko'ra, transport xarajatlarning kamayishi mahsulot tannaxsining pasayishiga hamda eksport qiluvchi korxonalarining xalqaro bozordagi imkoniyatlari kengayishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, ilmiy manbalarda logistika tizimining rivojlanishi quyidagi natijalarga olib kelishi qayd etiladi:

- eksport hajmining ortishi;
- transport xarajatlarning kamayishi;
- mahsulotlarni yetkazib berish tezligining oshishi;
- xalqaro bozorda raqobatbardoshlikning kuchayishi.

Import jarayonlarida logistikaning roli

Import operatsiyalarida ham transport logistikasining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlarda import qilinadigan mahsulotlarni tezkor va xavfsiz yetkazib berish ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida baholanadi.

Kucharov A. va Kamalova E. tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda O'zbekistonda transport-logistika tizimini yanada takomillashtirish zarurligi ta'kidlangan. Mualliflar transport vositalarini modernizatsiya qilish, chegara punktlarida xizmat ko'rsatish tezligini oshirish hamda logistika infratuzilmasini rivojlantirish import jarayonlari samaradorligini sezilarli darajada oshirishini qayd etgan [5].

Transport logistikasining texnik mohiyati yuk oqimlarini samarali boshqarish, transport marshrutlarini optimallashtirish hamda resurslardan unumli foydalanishni ta'minlashdan iboratdir. Xususan, multimodal tashish tizimlari — ya'ni bir nechta transport turlarining yagona logistika zanjirida uyg'unlashuvi — xalqaro savdoda keng qo'llanilib, yuklarni masofa, vaqt va xarajat ko'rsatkichlari asosida optimal tarzda yetkazib berish imkonini yaratmoqda. Shu bilan birga, logistika markazlari hamda "quruq portlar"ning tashkil etilishi yuklarni qayta ishlash tezligini oshirish va transport oqimlarini samarali muvofiqlashtirishga xizmat qilmoqda.

Axborot texnologiyalarining joriy etilishi logistika samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Jumladan, GPS-monitoring, real vaqt rejimidagi kuzatuv tizimlari, elektron hujjatlashtirish hamda avtomatlashtirilgan bojxona tizimlari yuk harakatini aniq nazorat qilish imkonini bermoqda. Natijada logistika operatsiyalarining aniqligi va tezkorligi ortib, ortiqcha xarajatlarni kamaytirish imkoniyati kengaymoqda.

Bugungi kunda eksport va import jarayonlarida transport logistikasini yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Avvalo, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish logistika samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayrim hududlarda temiryo'l va avtomobil yo'llarini rivojlantirish yuk tashish muddatlarini qisqartirish imkonini beradi. Shuningdek, bojxona rasmiylashtiruvchi jarayonlarini soddalashtirish va raqamlashtirish logistika zanjiridagi vaqt sarfini kamaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari, logistika tizimlarida zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish yuk oqimlarini samarali boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Transport xarajatlarni optimallashtirish esa eksport qilinayotgan mahsulotlarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, malakali logistika mutaxassislarini tayyorlash va ularning kasbiy salohiyatini oshirish mavjud tizimni yanada samarali boshqarish uchun muhim omil hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda eksport va import operatsiyalarida transport logistikasining ahamiyatini baholashda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari hamda transport-logistika sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi. Tadqiqot davomida logistika infratuzilmasi, multimodal tashish tizimlari va bojxona jarayonlarini raqamlashtirishning eksport-import samaradorligiga ta'siri tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida tizimli tahlil, qiyosiy taqqoslash, statistik tahlil, mantiqiy umumlashtirish hamda iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari hamda transport-logistika sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Eng avvalo, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, jumladan, strategik ahamiyatga ega avtomobil yo'llari hamda logistika markazlarini rivojlantirish zarur. Shu bilan birga, bojxona jarayonlarini to'liq raqamlashtirish va "yagona oyna" tizimini keng joriy etish orqali ortiqcha byurokratik to'siqlarni kamaytirish mumkin. Bundan tashqari, logistika tizimiga sun'iy intellekt hamda katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) asosidagi boshqaruv texnologiyalarini joriy etish yuk oqimlarini oldindan prognoz qilish va optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Kadrlar tayyorlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. Xususan, logistika sohasida zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash tizim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi [6].

Transport logistikasining nazariy asoslari

Transport logistikasi — yuklarni tashish, saqlash, qayta ishlash hamda yetkazib berish jarayonlarini boshqaruvchi tizimdir. Tadqiqotchilar logistikaning asosiy vazifasi mahsulotlarni kerakli joyga, kerakli vaqtda hamda minimal xarajatlar asosida yetkazib berishdan iborat ekanligini ta'kidlaydilar. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda logistika tizimining rivojlanishi eksport hajmining oshishiga xizmat qilishi ko'rsatib o'tilgan.

Xususan, "Transportation as a Service for International Trade in Uzbekistan" nomli maqolada transport xizmatlari xalqaro savdoning asosiy tarkibiy qismi ekanligi hamda eksport-import faoliyatining samaradorligi transport tizimining rivojlanganlik darajasiga bog'liqligi qayd etilgan [7].

Eksport salohiyatini oshirishda logistikaning roli

Ilmiy manbalarda transport infratuzilmasining rivojlanishi eksport salohiyatini oshirishda muhim omil sifatida baholanadi. Xususan, O'zbekiston misolida olib borilgan tadqiqotlarda temiryo'l va avtomobil transporti orqali tashilayotgan yuk hajmlarining ortishi tashqi savdo ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani asoslab berilgan.

Qosimova Dilorom Sobirovnaning ilmiy ishida transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika markazlarini rivojlantirish hamda bojxona jarayonlarini raqamlashtirish eksport raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlangan [8].

Bundan tashqari, logistika tizimidagi samaradorlik quyidagi natijalarga olib keladi:

- mahsulot tannarxining kamayishi;
- eksport yetkazib berish muddatining qisqarishi;
- xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikning ortishi;
- tranzit salohiyatining kuchayishi.

Import jarayonlarida transport logistikasining ahamiyati

Import operatsiyalarida ham transport logistikasining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Tovarlarini xorijiy davlatlardan tezkor va xavfsiz olib kirish ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, logistika tizimidagi ayrim kamchiliklar bojxona punktlarida ortiqcha kutishlar, transport xarajatlarning oshishi hamda mahsulotlarni yetkazib berishdagi kechikishlarga sabab bo'lishi mumkin.

Abrorjon Kucharov va hamkorlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekistonda transport-logistika sohasini yanada rivojlantirish zarurligi qayd etilgan. Tadqiqotda transport vositalarini modernizatsiya qilish, yo'l infratuzilmasini rivojlantirish hamda chegara punktlarida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish muhim yo'nalishlardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston transport-logistika tizimining rivojlanish istiqbollari

Ilmiy adabiyotlarda O'zbekistonning geografik jihatdan dengizga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyatiga ega emasligi transport logistikasining ahamiyatini yanada oshirishi qayd etiladi. Shu sababli mamlakat uchun xalqaro transport koridorlarini rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etadi [9].



Tadqiqotchilar quyidagi yo'nalishlarni ustuvor deb hisoblaydilar:

- xalqaro multimodal transport tizimlarini rivojlantirish;
- logistika markazlari sonini ko'paytirish;
- bojxona xizmatlarini raqamlashtirish;
- temiryo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish;
- tranzit koridorlarini kengaytirish.

“Transport logistikasi va eksport salohiyati” nomli maqolada Yevropa davlatlarining ilg'or logistika tajribalarini O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilingan [10].

Transport-logistika tizimi eksport va import operatsiyalarining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Rivojlangan logistika infratuzilmasi tashqi savdo hajmini oshirish, transport xarajatlarini kamaytirish hamda mahsulotlarni tezkor yetkazib berishni ta'minlaydi. O'zbekiston sharoitida transport koridorlarini rivojlantirish, bojxona tizimini raqamlashtirish va logistika markazlari sonini ko'paytirish eksport-import faoliyati samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Transport logistikasining samarali tashkil etilishi eksport va import operatsiyalarining barqaror hamda raqobatbardosh amalga oshirilishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy logistika tizimi nafaqat yuk tashish jarayonlarini boshqaradi, balki ta'minot zanjirining barcha bosqichlarini yagona tizim asosida muvofiqlashtirish orqali tashqi savdo faoliyati samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu jihatdan transport logistikasining rivojlanganlik darajasi mamlakatning xalqaro iqtisodiy integratsiyadagi o'rnini belgilovchi muhim mezonlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, multimodal tashish tizimlarini keng joriy etish, bojxona xizmatlarini raqamlashtirish hamda logistika markazlari faoliyatini takomillashtirish eksport-import operatsiyalarining samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, logistika jarayonlariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt hamda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish yuk oqimlarini samarali boshqarish, transport xarajatlarini kamaytirish va mahsulotlarni qisqa muddatlarda yetkazib berishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida O'zbekistonda transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlar hamda ustuvor yo'nalishlar tahlil qilindi. Xususan, xalqaro transport koridorlarini kengaytirish, tranzit salohiyatini oshirish, temiryo'l va avtomobil infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda malakali logistika mutaxassislarini tayyorlash dolzarb vazifalardan biri ekanligi aniqlandi. Mazkur yo'nalishlarda amalga oshiriladigan islohotlar mamlakat tashqi savdo hajmini oshirish, eksport qilinayotgan mahsulotlarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, transport logistikasini kompleks ravishda rivojlantirish va uni zamonaviy boshqaruv mexanizmlari asosida takomillashtirish O'zbekistonning global iqtisodiy makondagi mavqeini mustahkamlash, xalqaro savdo aloqalarini kengaytirish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qosimova, D.S. O'zbekistonda eksport salohiyatini oshirishda transport logistikasini rivojlantirish yo'nalishlari // *Marketing Journal*. – 2023-yil. – №4. – B. 45–52.
2. Kucharov, A., Kamalova, E. O'zbekiston Respublikasida bojxona faoliyatida transport logistikasining ahamiyati va rivojlanish yo'nalishlari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2022-yil. – №6. – B. 112–119.
3. Narziyev, U.B. Milliy iqtisodiyot eksport salohiyatini oshirishda transport tizimining roli // *Iqtisodiyot va ta'lim*. – 2021-yil. – №3. – B. 78–84.
4. Samatova, S.N. Transport logistikasi va eksport salohiyati // *International Journal of Scientific Research*. – 2024-yil. – №2. – B. 91–97.
5. Shahparan, M., Ahmedov, S., Karimov, J. O'zbekistonda xalqaro savdoda transport xizmatlarining o'rnini // *International Journal of Applied and Advanced Multidisciplinary Research*. – 2023-yil. – №5. – B. 33–40.
6. Christopher, M. *Logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvi*. – London: Pearson Education, 2016-yil. – 305 b.
7. Bowersox, D., Closs, D., Cooper, M. *Supply Chain Logistics Management*. – New York: McGraw-Hill, 2019-yil. – 498 p.
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. *Tashqi savdo va transport ko'rsatkichlari bo'yicha statistik to'plam*. – Toshkent, 2024-yil.
9. Xalqaro transport koridorlari va logistika markazlarini rivojlantirish masalalari // *Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*. – 2023-yil. – №7. – B. 55–63.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100